TARIXIY ASAR YARATISHDA AN’ANAVIYLIK

(Ollomurod Annaboy o‘g‘lining “O‘g‘zu,Alanquva va Shayboniynoma” asari misolida)

Magistr. Fayzullayeva Diyora

Annotatsiya. Ushbu tezisda Ollomurod Annaboy o‘g‘lining “O‘g‘uz, Alanquva va Shayboniynoma” asarida tarixiy asarlarni yaratishdagi an’anaviylik va o‘ziga xoslik qiyoslab o‘rganildi. “Qur’oni Karim”dan keltirilgan parcha tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: “Qur’on”, bayt, payg‘ambar, Ka’non,Yofas.

Tarixiy asarlarni yaratishda Sharqda o‘ziga xos an’analar shakllangan. Ollomurod Annaboy o‘g‘lining “O‘g‘uz, Alanquva va Shayboniynoma” asarida an’anaviylikni bir necha yo‘nalishda kuzatishimiz mumkin. Masalan: boshqa tarixiy asarlardan o‘zlashtirib yoki umumlashtirib qayta hikoya qilish. Muallifning o‘zi bir necha o‘rinlarda qaysi asarlardan foydalanganligi haqida aytib o‘tadi. Mirzo Muhammad Haydar esa bu yo‘lga kirmasdan asarga o‘ndan ortiq boblarni “Zafarnoma” va “Tarixi jahonkushoy”dan iqtibos tarzida kiritadiki, bu muallifning ustoz tarixchilar oldidagi sadoqatini ko‘rsatadi. Qolaversa, tarixiy asarlarga “Zafarnoma” va “Shajarayi turk”, “Tarix Rashidiy”larda uchraganidek voqea-hodisalarga aloqador she'riy parchalar kiritish rasm bo‘lib, bu an’anaga Ollomurod Annaboy o‘g‘li ham, Mirzo Muhammad Haydar ham amal qilgan. Farqli jihati, odatda mualliflar asariga o‘ziga tegishli misralarni kiritishsa, “Tarixi Rashidiy”dagi she’riy parchalar qisman muallifniki, ko‘proq boshqa mashhur manbalardan keltirilgan (chunonchi, Sa’diy “Guliston”i, “Bo‘ston”i, Abdurahmon Jomiy asarlari, Sulton Saidxon ijodidan)[1]. Ollomurod Annaboy o‘g‘lining asarida keltirilgan baytlarning esa mualliflari berilmagan. Ushbu she’riy parchalar matnga shunchaki badiiy bezak berib qolmay, balki tarixiy voqea- hodisalarning mohiyatini teran ochib berishga

xizmat qiladi. Yana bir muhim an’analardan biri voqea-hodisalar jarayoni yoki yakunini “Qur’oni Karim”ning biror oyati, Muhammad (s. a. v.)ning hadisi shariflari yoki biror aziz zotning so‘zlari bilan dalillash, tasdiqlashdir. “O‘g‘uz, Alanquva va Shayboniynoma” asarida Nuh alayhissalom qissasida “Qur’oni Karim”dan oyat keltiriladi. “Bu to‘rtidin uch o‘g‘li Yofas va Som va Xom Hazrat Nuh alayhissalomg‘a iymon kelturub musulmon bo‘ldilar va Ka’non iymon kelturmadi, musulmon bo‘lmadi. Nuh to‘foni shoye bo‘lub, tog‘larni suv bosqondan so‘ng Ka’non suvg‘a g‘arq bo‘ldi. Va Nuh alayhissalom Tangri taologa munojot qildikim:

الْحَاكِمِين أَحْكَمُ وَأَنتَ الْحَقُّ وَعْدَكَ وَإِنَّ أَهْلِي مِنْ ابْنِي إِنَّ رَبِّ فَقَالَ رَّبَّهُ نُوحٌ وَنَادَىٰ

“Va Nuh Parvardigoriga nido qilib dedi: Ey Rabbim! Albatta, mening o‘g‘lim ahlimdandir. Sening va’dang haqdir. Sen hukm qiluvchilarning eng adolatlisisan” (Hud surasi, 45-oyat). Nuh munojot qilg‘ondin so‘ng oning javobida bu oyat nozil bo‘lubturkim:

عِلْمٌ بِهِ لَكَ لَيْسَ مَا تَسْأَلْنِ فَلَا ۖ صَالِحٍ غَيْرُ عَمَلٌ إِنَّهُ ۖ أَهْلِكَ مِنْ لَيْسَ إِنَّهُ

“Alloh dedi: Ey Nuh! U sening ahlingdan emas. Chunki u yomon amal egasidir”. (Hud surasi, 46-oyat).(2-b sahifa). [2]

Qur’on oyatlarini payg‘ambarlar zikrida berish tarixiy asarlarda an’anaviy tarzda ifodalab kelingan. Ollomurod Annaboy o‘g‘li asarida ham bu an’ana davom etgan. Nuh alayhissalomdan boshlab “Qur’on”dan iqtibos keltiradi. “Qur’on”ning Hud surasi 45-46-oyatlari Nuh payg‘ambar qissasining eng nozik nuqtalaridan biri hisoblanadi. Bu oyatlar faqat tarixiy voqeani hikoya qilibgina qolmay, inson, oila, iymon va ilohiy adolat masalalarini ham ochib beradi. 45-oyatda Nuh alayhissalom Allohga murojaat qilib, suv to‘foni paytida o‘z o‘g‘lini qutqarishni so‘raydi. U bu iltijoda oddiy ota sifatida emas, balki Allohning ilgari bergan va’dasiga tayangan holda so‘zlaydi. Bu yerda Nuh alayhissalom ota sifatidan Ollohdan farzandiga omonlik so‘raydi, ammo bu murojaat insoniy tushuncha doirasida qurilgan bo‘lib,

“ahli” tushunchasini nasliy bog‘liqlik sifatida qabul qilganini ko‘rsatadi. 46-oyatda esa ilohiy javob keladi va bu javob oyatning asl mohiyatini ochib beradi. Alloh taolo Nuhga murojaat qilib, “U sening ahlingdan emas”,-deydi. Bu jumla oddiy rad javobi emas, balki oyat mazmunini qayta tushintirishdir. Bu yerda “ahl” tushunchasi qon-qarindoshlik tushinchasigina emas, iymon va solih amallar bilan belgilanishi ko‘rsatib berilgan. Allohning “u yomon amal egasidir” degan hukmi shuni ko‘rsatadiki, inson najotga nasl, maqom yoki qarindoshlik bilan emas, balki ezgu va solih ammallari orqali yetishadi. Bu dinimizning eng asosiy tamoyillardan biridir. Har bir inson o‘z qilmishi uchun javobgar. Hatto payg‘ambar farzandi ham bu umumiy qonunni chetlab o‘ta olmaydi. Bu esa dinimizning naqadar adolatli ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur oyatlarning eng asosiy xulosasi shuki, Alloh huzurida haqiqiy yaqinlik nasl orqali emas, balki iymon va solih amal orqali belgilanadi. Insonning ijtimoiy yoki oilaviy maqomi uni najotga olib chiqmaydi, faqat chin e’tiqod va ezgu amallar uni Alloh huzurida yorug‘ yuzli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://old.tavorix.islamonline.uz/milliyat-insholari/194-tarixi-rashidiy.pdf
2. Олломурод Аннабой ўғли. Ўғуз, Аланқува ва Шайбонийнома. ЎзР ФА ШИ, 4347 рақамли қўлёзма асар. 99 варақ.